



Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](#)

Year: 2024 Issue: 1 Volume: 7

Published: 12.10.2024 <https://universaljurnal.uz>

International indexes

[GOOGLE SCHOLAR](#)

[CROSSREF \(OAK BAZA\)](#)

[ZENODO](#)

[OPEN AIRE](#)

[EUROPUB](#)

[RESEARCHGATE \(OAK BAZA\)](#)

[SJIF](#)



Raxmatullayeva Gulnozaxon Mavlajonovna

Andijon davlat pedagogika instituti

Uzbekistan

YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA MA'NAVIYATNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI

Abstract: This article is aimed at studying the theoretical and methodological foundations of spirituality in the development of Uzbekistan. Spirituality plays an important role in preserving the national values and traditions of Uzbekistan, adapting to modern social and economic changes. The article analyzes the factors influencing the development of spirituality, such as the social environment, the education system, and the state policy. Also, the importance of spirituality in the education of the young generation and its impact on stability and development in society will be shown. The results of the research are expected to serve to strengthen and develop spirituality in the development of Uzbekistan.

Key words: development of Uzbekistan, spirituality, theoretical methodology, social changes, national values, education system, young generation, culture, digital economy, sustainable development.

Annotatsiya: Ushbu maqola Yangilanayotgan O'zbekiston taraqqiyotida ma'naviyatning nazariy va metodologik asoslarini o'rganishga qaratilgan. Ma'naviyat, O'zbekistonning milliy qadriyatlari va an'analarini saqlash, zamonaviy ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarga moslashishda muhim rol o'yndaydi. Maqolada ma'naviyatning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar, ijtimoiy muhit, ta'llim tizimi va davlat siyosati singari asosiy jihatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, ma'naviyatning yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati va uning jamiyatdagi

barqarorlik va taraqqiyotga ta'siri ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari O'zbekiston taraqqiyotida ma'naviyatni mustahkamlash va rivojlantirishga xizmat qilishi kutilmoqda.

Kalit so'zlar: O'zbekiston taraqqiyoti, ma'naviyat, nazariy metodologiya, ijtimoiy o'zgarishlar, milliy qadriyatlar, ta'lif tizimi, yosh avlod, madaniyat, raqamli iqtisodiyot, barqaror rivojlanish.

Аннотация: Данная статья направлена на изучение теоретико-методологических основ духовности в развитии Узбекистана. Духовность играет важную роль в сохранении национальных ценностей и традиций Узбекистана, адаптации к современным социальным и экономическим изменениям. В статье анализируются факторы, влияющие на развитие духовности, такие как социальная среда, система образования и государственная политика. Также будет показано значение духовности в воспитании молодого поколения и ее влияние на стабильность и развитие общества. Ожидается, что результаты исследования послужат укреплению и развитию духовности в развитии Узбекистана.

Ключевые слова: развитие Узбекистана, духовность, теоретическая методология, социальные изменения, национальные ценности, система образования, молодое поколение, культура, цифровая экономика, устойчивое развитие.

Language: Uzbek

Citation: Rakhmatullayeva, G. THEORETICAL METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF SPIRITUALITY IN THE DEVELOPMENT OF RENEWING UZBEKISTAN. Universal International Scientific Journal, 1(7), 32–38. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1156>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13987405>

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyev demokratik islohotlarni amalga oshirish jarayonida xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va yuksaltirish davlat va jamiyatning eng muhim vazifasi ekanligini ta'kidlar ekan: "...yurtimizda ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaxshilash, yoshlarni turli diniy ekstremistik oqimlar ta'siridan asrash masalasi barchamiz uchun eng asosiy vazifa bo'lib turibdi," — deb tavsiflagan edi. Binobarin, ushbu muammolarning oldini olmasdan turib, yuqori ma'rifatlashgan jamiyat qurib bo'lmaydi. Ayniqsa, globallashuv jarayonining avj olishi nafaqat alohida shaxsning, balki butun jamiyat a'zolarining ham ma'naviy yuksak tuyg'ular egasi bo'lishini taqozo etadi. Chunki ma'nан

qashshoq odamlar bilan hech qachon ijtimoiy taraqqiyotga erishib bo'lmaydi.

"Ma'naviyat" atamasining falsafiy mazmun-mohiyati, aslida odamzotning kelib chiqishi va tarixiy-tadrijiy rivojlanishi bilan bog'liq hodisa bo'lib, insoniyat o'zidagi biologik instinktni jilovlab chin ma'nodagi bioijtimoiy mavjudotga aylanib borishining asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. U muayyan dunyoqarash, mental tafakkur bilan bog'liq hodisa sifatida alohida tadqiqot ob'yekti bo'lib, maxsus ilmiy-falsafiy tahlil etishni taqozo etadi. Insonni tirik tabiatning bir bo'lagi sifatida vujudga kelishi va tarixiy-tadrijiy (evolyutsion) rivojlanishini yaqqolroq tasavvur etish maqsadida uning bosqichlarini odam umrining turli fasllariga qiyoslash mumkin. Odamning paydo bo'lishi va tarixiy-tadrijiy rivojlanishini maxsus tadqiq etadigan

tabiatshunoslikning qator sohalari namoyandalarining umumiy e'tiroflaricha, dastlabki odamlar va ularning turmush tarzi hayvonlarnikidan juda oz farq qilgan. Odamning ijtimoiylashuvini uch bosqichga bo'lish mumkin.

Birinchi bosqich: bir necha million yil oldin yashagan avstralopitek toifasidagi dastlabki odamlar bo'lib, ular faqat tabiiy qurollar (tosh, tayoq, yirik hayvonlarning suyaklari) yordamida birgalikda gala-gala bo'lib yashash uchun kurashganlar. Ana shu davrni odamzotning ona qornidagi rivojiga o'xshatish mumkin.

Ikkinci bosqich: 2-1,7 million yil oldin pitikantrop odamlar, ulardan keyingi sinantrop va neandertal insonlar, fan nuqtai nazaridan, uquvli odamlar deb ataladi. Zero, ular toshlardan turli mehnat qurollari yasab, yashash uchun kurashga o'tganlar. Ularni odamzotning go'daklik davri deb atash mumkin.

Uchinchi bosqich: Aqli odamlar — *Homo sapiens* paydo bo'lishi bilan bog'liq hodisa bo'lib, uni odamning balog'at bosqichiga qiyoslash mumkin. Aqli odamlarning o'zlaridan oldingi insonlardan tub farqi shundaki, ular rivojlangan nutq tiliga ega bo'lganliklari sababli yashash uchun kurashning ijtimoiy holatiga o'ta boshlaganlar. Ba'zi tadqiqotchilar bu odamlar 100,000 yil, boshqalari 50-40 ming yil, yana boshqa manbalar esa 28-25 ming yil oldin paydo bo'lgan deb ta'kidlaydilar.

Bu jarayonni o'rganishdan ma'lum bo'ldiki, ijtimoiy hayotning shakllanishi, odamzotning jamoa-jamoa bo'lib yashashdan jamiyat shaklida hayot kechirishga o'tishi keyingi o'n ming yilliklarga to'g'ri keladi. Odamzotning jamiyat (uruq-uruq, qabila-qabila) bo'lib

yashashga o'tishi uning hayvonot olamidan batamom ajrab chiqib, yashash uchun kurashning insoniy vositalarini qidirish va topishga bo'lgan mashaqqatlari izlanishlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Ma'naviyatni shakllantirish ehtiyojlari uruqlar va qabilalarda oziq-ovqatlarga, munosabatda ijtimoiy adolatni qaror toptirishni taqozo etardi. Uruq boshliqlari taqiqlarga rioya qilinishini qattiq nazorat ostiga olib, jamoatchilik fikrini hurmat qilishni, amaliy faoliyatni tartibga solishni talab qilishdi. Ular avvalo o'sha davrda keng yoyilgan bir uruqlar ichida sodir bo'ladigan nikohlarni taqiqlab qo'ydilar. Oqibatda, odam bolasingin sog'lom tug'ilishi va kamol topishi uchun ma'naviy asos yaratdilar. Turli oziq-ovqatlar taqsimoti, fe'l-atvor, xattiharakatlarga ruxsat va taqiq tizimini vujudga keltirib, ular ustidan qattiq nazorat o'rnatildi, amaldagi normalarga rioya qilib yashashga qaratib, asta-sekin an'anaga aylangan urf-odat, rasm-rusumlar va marosimlarni vujudga keltirdilar.

Natijada odamlar o'z ehtiyojlarini muayyan ijtimoiy-ma'naviy tartib-qoidalar doirasida qondirishga odatlandilar. Bu esa muayyan qabila va uruqlar, har bir mamlakat va har bir xalqda o'ziga xos ma'naviyat unsurlarining yuzaga kelishi hamda takomillashib borishiga olib kelgan. Shu tariqa, odamzot o'z taraqqiyotining bolalik davridan balog'at bosqichiga o'ta boshladi. Darhaqiqat, insonning go'daklik va bolalik davrlaridagi yashash uchun kurash jarayonida uning ma'naviyat asoslari vujudga keldi. Har bir xalq va millatning o'ziga xos dunyoqarashi mayjudligi, mavjud muammolarga individual munosabatini ham yuzaga chiqaradi. Shuning

uchun, ma'naviyat rivoji va takomillashib borishi tarixiy xarakter kasb etadi.

Ma'lum bir mamlakat va xalqda ma'naviyat etuklik belgisi sanalgan bo'lsa, boshqa bir mintaqada yoki boshqa bir davlatda ma'naviyatning oqsashi taraqqiyotdan ortda qolishga olib kelgan. Zotan, inson boshqa mavjudotlardan o'zining xotirasi, tafakkuri, turli amaliy faoliyatini tartibga sola bilishi bilan ajralib turadi. Ma'naviyat odamlarning o'zaro munosabatlari va real hayotiy tajribalari jarayonida shakllanib, rivojlanib boruvchi qadriyatlar tizimi bo'lib, alohida odamning ichki olami, ruhiy holati va turmush tarzini belgilovchi, uning inson-ijtimoiylashgan shaxsga aylanishining zarur shartidir. Ma'naviyat insonning ichki dunyosi - histuyg'ulari, fikrlari, e'tiqodlari, imoni bilan tutashib ketadi. Ma'naviyat din bilan bog'liq bo'lishi yoki mustaqil rivojlanishi mumkin, bu har bir davrdagi odamlarning dunyoqarashi bilan bog'liq bo'ladi. Ma'naviyat negizini odamning yashashdan maqsadini tushunishi tashkil qiladi. Zero, u inson mohiyatini aks ettiradi. Ma'naviyatsiz odamda insoniylik sifatlari mavjud bo'lmaydi. Amaliy faoliyat jarayonida ma'naviyat fenomenining ijtimoiy funksiyasi yetakchilik qiladi. Ma'naviyat masalalarini tadqiq etgan olim A.Erkayev unga alohida falsafiy tushuncha sifatida yondashib, uning mohiyatini muayyan ma'noda izohlab quyidagicha yozadi: "Ma'naviyat va uning o'zagidan yasalgani ma'naviy sifatlashning qo'llanilishi doirasi keskin kengayib, ularning lug'aviy va atama sifatidagi mazmuni shu qadar boyib bormoqdaki, bu ma'naviyatni alohida falsafiy tushuncha sifatida o'rganishni, uning madaniyat, ong, tafakkur, dunyoqarash, ruhiyat hamda badiiy, siyosiy, axloqiy

qadriyatlar va shu singari boshqa tushunchalar tizimidagi o'rnini aniqlash, ular bilan o'zaro munosabatini tahlil qilishni taqozo etmoqda.

Ma'naviyatga nisbatan o'zga=charoq ta'rif bergen Q.Bo'ronov: "Ma'naviyat ko'proq insonning ichki, botiniy, yashirin dunyosi bo'lib, unga ser-mashaqqat hayotida hech qanday yomon, ahmoqona xatti-harakat qilishga, axloqsiz bo'lishga ijozat bermaydi," deya ta'kidlaydi.» Demak, ma'naviyat asosan inson (ijtimoiylashgan odam)ning ichki yashirin dunyosidir. Shu tufayli odam o'zi yashayotgan muhit va jamiyatda tarixan qaror topgan odob-axloq doirasida faoliyat olib borish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Tadqiqotchi Shtump ma'naviyatning uch asosini ajratadi: "intellektual (kognitiv), axloqiy-marosimlarga oid va badiiy-estetik." Ularga inson ma'naviy hayotida imon (ishonch), bilish, axloq, san'atlar to'g'ri keladi. Ma'naviyat qaerda vujudga kelishidan qat'i nazar, unda ma'lum bir umumiyy qonuniyatlar: (axloqiy me'yorlar, qadriyatlarga so'zsiz amal qilish, har qanday e'tiqodni hurmatlash, unga qat'iy amal qilish) kuzatiladi.

A. Ibrohimov, X. Sultonov, A. Jo'raevlarning "Vatan tuyg'usi" kitobida ma'naviyatga quyidagicha ta'rif berilgan: "Ma'naviyat - jamiyatning, millatning yoki ayrim bir insonning ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati va idrokini mujassamlashtiruvchi tushuncha." Faylasuf olim T. Mahmudov esa ma'naviyatning tarkibiga juda ko'p qadriyatlarni kiritadi. Binobarin, unga bir ma'noli ta'rif berish anchayin mushkul. Chunki, ma'naviyat ong va qalbda makon topib, yorug' dunyoda ruhiy qadriyat tarzida konkretlashib, moddiylashgan -insoniyashgan holdagini ko'zga tashlanadi.

A. Alievning fikricha, "Ma'naviyatga ta'rif berib o'tirishga hojat yo'q, ko'pchilik tushunadi. Agar bir so'z bilan aytildigan bo'lsa, "ma'naviyat - insoniylik, imon va e'tiqoddir". Biroq odamning yetuk insonga aylanishida tashqi ta'sirning o'zi yetarli emas. Iymon-e'tiqodning ham ahamiyati katta bo'lib, u odam ongini rivojlantirishda ichki rag'bat ro'lini o'ynaydi. Iymonli inson bo'layotgan voqe-a-hodisalarga o'zi qabul qilgan iymon-e'tiqodi nuqtai nazaridan kelib chiqib, o'z munosabatini belgilaydi. Iymonli odam insoniyat, jamiyat, muayyan madaniyat qadriyatlariga xilof fikr va g'oyalarni qabul qilmaydi, aksincha, ularning rivojlanish yo'llarini to'sadi.

Ba'zi faylasuf olimlarning fikricha: "Ma'naviyat jamiyat, millat, odamlarga xos ichki dunyoni aks ettiruvchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlar va tushunchalar majmuidir. Faylasuf olim S.Otamurodov esa ma'naviyatga quyidagicha ta'rif beradi: "Ma'naviyat - insonning ruhiyatini, uning o'z - o'zini anglashini, didi, farosati,adolat bilan razillikni, yaxshilik bilan yomonlikni, go'zallik bilan xunuklikni, vazminlik bilan johillikni ajrata bilish qobiliyatini, aql-zakovati, yuksak maqsad va g'oyalarni qo'ya bilish, ularni amalga oshirish uchun harakat qilish va intilish salohiyatidir". Keltirilgan ta'riflarga qo'shilgan holda shuni ta'kidlash kerakki, har bir odamning fikri va qalbi barqarorlik va beqarorlik holatida mavjud bo'ladi. Bu holat vaziyatga qarab bir-biriga o'tib turadi. Insondagi ruhiy holat o'zi va boshqalar fikriga qarab ham tez o'zgarib turadi. Faqat g'oyaviy tayanch-ishonchga ega bo'lsa, Oliy haqiqat bilan o'z ichki olamini teran bog'lagan fikran bir butun, qalbi imonli insonlarga xos barqarorlikka ega bo'ladi.

Ma'naviyatda insonning turli davrlarda shakllangan dunyo va insoniy munosabatlar to'g'risidagi qarashlari, tasavvurlari o'z ifodasini topadi. Ular xilma-xil bo'lib, turli xalqlar va millatlarning e'tirof etishi bilan bog'liq ravishda ma'naviy hayotdan o'rin egallaydi, hamda muayyan turmush va tafakkur tarzi bilan uyg'unlikdagi tamoyillar, an'analar tarzida shakllanib, muayyan xalqlar va elatlar ma'naviyatiga aylanadi. Shuning uchun, har bir shaxs dunyoni o'ziga xos tarzda idrok etadi. Har bir xalqning ongi, tafakkuri va turmush tarzi o'z mohiyatiga ko'ra, milliy ma'naviyatga xizmat qiladi. Agar umumbashariy g'oyalar milliy shaklda nihoyatda ta'sirli ifodasini topsa, uning umumbashariy jihatlari ham yuksak bo'ladi. Shunday milliy ma'naviyatning istiqboli porloq, mazmun-mohiyati purviqor tus oladi.

Ma'naviyat tarixi uning ijtimoiy taraqqiyotga, taraqqiyotning esa ma'naviyatga o'zaro ta'siri masalasida, hamda odamning tom ma'nodagi ijtimoiy mavjudot - insonga aylanishi xususida falsafada, dinlardagi kabi, yakdil va muhim fikr shakllanib, u jiddiy mafkura predmetiga aylanganicha emas.

Mayjud o'quv qo'llanma va kitoblarning mualliflari ichida ma'naviyatni iymon va e'tiqod bilan bog'liq hodisa sifatida talqin etuvchilar ham uchraydi. Biroq, ularning ba'zilari iymon va e'tiqodni faqat diniy ongga, o'shanda ham islomga xos hodisa sifatida talqin etishga moyildirlar. M.Imomnazarov ta'kidlashicha: "Ma'naviyat g'ayrioddiydir, chunki u Alloh inoyati bilan inson qalbida zuhur etadi. Ma'naviyatning asl manbai ilohiy nur, oliy haqiqat nuridir. U inson qalbida, ko'ngil ko'zgusida aks etadi. Ammo buning uchun ko'zgu sayqal topgan bo'lmog'i kerak". Ko'rinadiki, bu o'rinda ma'naviyat diniy

mazmunda talqin etilib, uning dunyoviy jihatlari biroz chetlab o‘tilgan. Shuni ham ta’kidlash lozimki, ma’naviyatga munosabat masalasida ilmiy-falsafiy yo‘nalishda ham, diniy-ilohiyot yo‘nalishda ham turlichayondashuvlar borligini nazardan soqit qilmaslik zarur. Demak, muayyan bir diniy yoki falsafiy yo‘nalish nuqtai nazaridan ma’naviyat inson barkamolligining ifodasi hisoblanar ekan va unin odamzotda hayvoniyyirslar qo‘zgalib ketar ekan, boshqacha yondashuvlarda uni madaniyat tarkibiga kiritish holatlari ham uchraydi. Jumladan, A.Erkayevning fikricha: “Ma’naviyat, eng avvalo, madaniyat orqali mustaqil mavjudligini namoyon etadi” Faylasuf T. Mahmudov esa bir qadar o‘zgacharoq fikrlab, “ma’naviyatsiz odam bo‘lmaydi, lekin odamning ma’naviyati past yoki yuqori bo‘lishi mumkin,” deb hisoblaydi”, “Ma’naviyat” deb yozadi u, “umumiytushuncha bo‘lishi bilan birga, ayni chog‘da aniq hayotiy sharoitlarda faoliyat ko‘rsatuvchi shaxslarning aniq-ravshan (konkret) xattiharakatlarini ifodalovchi qalb tarzida amal qiladi. Inson ma’naviyatini ushlab bo‘lmaydi, biroq uni insonning tabiat va jamiyatdagi amallari orqali his qilish va idrok etish mumkin”. Mazkur fikrlardan anglashiladiki, ruh qalb bilan bog‘liq hodisa bo‘lib, har bir insonning ichki dunyosi o‘ziga xosdir. Shunga ko‘ra, vaziyat va holat talabiga ko‘ra, bu daraja baland yoki past bo‘lishi mumkin. Yuksak ma’naviyatli insonning ma’naviy-ruhiy olami boy, dunyoqarashi yuqori, iroda va imon-e’tiqodi mustahkam bo‘lib, u o‘z fuqarolik burchlarini vijdonan bajaradi.

Dunyon anglash jihatidan imon va e’tiqod individual ong unsuri hamda inson faoliyatini muayyan maqsadga yo‘naltiruvchi alohida

ruhiy holatdir. Hayot hodisalariga nisbatan ikkilanish, jur’atsizlik, e’tiborsizlik va befarqlik, ya’ni imon-e’tiqodsizlik, individning ma’naviy inqirozidan darak beruvchi alomatlardir. Iymon va e’tiqodsiz odamlar ko‘pincha boshqalarga ergashib yoki taqlid qilib yashaydilar. Ularda aniq maqsad bo‘lmaydi. Bunday odamlar mavjud sharoitdan kelib chiqib, goh u, goh bu tomonga og‘ib ketaveradilar. Ulardagi e’tiqodiy bo‘shliq, tabiiy ravishda, jamiyat taraqqiyotiga to‘siq bo‘ladi. Shu boisdan ham yoshlarda ijtimoiy qadriyatlarga, buyuk kelajakga, taraqqiyotga bo‘lgan ishonchni, ozod va obod Vatan, farovon hayot barpo etishga bo‘lgan e’tiqod (ixlos)ni tarbiyalash ijtimoiy taraqqiyot omillaridan biri ekanligini doimo e’tiborga olish zarur. Taraqqiyotga, hurlikka yetaklovchi ishonch va e’tiqod bilan buzuvchi, to‘g‘ri yo‘ldan adashtiruvchi, yolg‘on “e’tiqod”ni bir-biridan farqlay olishimiz lozim.

Iymon-e’tiqod shakllanishi uchun faqat bilimning o‘zi kifoya qilmaydi, balki u muayyan dunyoqarash bilan bog‘liq hodisa bo‘lib, diniy dunyoqarash asosida ham, falsafiy dunyoqarash negizida ham inson ongi va ruhiy olamida barqaror bo‘lishi mumkinligi ilmiy-falsafiy jihatdan isbotlangan. Ya’ni, “imon” (arabcha “aman” so‘zining o‘zbekchalashtirilgan shakli bo‘lib, u ishonch va e’tiqod ma’nolarini anglatadi) hozirgi zamon toifasidagi aqlli inson — Homo sapiens ongingin nodir hodisasi, muayyan fikr, oliy g‘oyaning haqligiga komil ishonchdan iborat shaxsdagi alohida ruhiy holatdir. Shu sababli ilmiy-falsafiy dunyoqarash asosida kamol topgan inson (jamiyatlashgan individ) ongingin nodir hodisasi bo‘lgan iymon, diniy-aqidaparastlik dunyoqarashiga asoslangan

iymonga nisbatan keng qamrovli, ya'ni umuminsoniy tasnifga egaligi bilan alohida ajralib turadi. Binobarin, tarixiy taraqqiyot va ma'naviy hayotning barqaror bo'lishi avvalo iymonli insonlar faoliyati bilan uzviy bog'liq ekanini nazarda tutish muhimdir.

Hozirgi tarixiy davrda fan va dinni birbiriga qarama-qarshi qo'yish ma'naviyatning asoslariga putur yetkazish bilan tengdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G'afurov, F. (2021). "O'zbekiston va ma'naviyat: tarixiy aspektlar." Tarix va ijtimoiy fanlar, 11(3), 55-60 betlar.
2. Islomov, B. (2021). "Ma'naviyat va iqtisodiy rivojlanish." O'zbekiston iqtisodiyoti jurnali, 6(4), 15-22 betlar.
3. Jumaniyazov, R. (2020). "Ma'naviyat va ijtimoiy rivojlanish." Ijtimoiy fanlar jurnali, 15(1), 12-18 betlar.
4. Karimov, J. (2022). "O'zbekiston taraqqiyotida madaniyat va ma'naviyat." Madaniyat va taraqqiyot, 9(3), 25-30 betlar.
5. Khalilov, A. (2021). "O'zbekistonning taraqqiyoti va ma'naviyat." O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi axborotnomasi, 4(2), 25-30 betlar.
6. Nazarov, S. (2022). "O'zbekiston taraqqiyotida ma'naviyatning roli." O'zbekiston davlat jurnali, 7(3), 45-50 betlar.
7. Qodirov, T. (2022). "Ma'naviyat va ta'lim tizimi." Ta'lim va innovatsiyalar jurnali, 5(2), 30-35 betlar.
8. Rahmonov, E. (2023). "Raqamli iqtisodiyot va ma'naviyat." Raqamli iqtisodiyot jurnali, 9(1), 50-55 betlar.
9. Saidov, X. (2020). "Ma'naviyat va muammolar." Ijtimoiy va gumanitar tadqiqotlar, 3(4), 5-10 betlar.
10. Sharifov, I. (2021). "O'zbekiston ma'naviyati: muammolar va yechimlar." O'zbekiston fanlari jurnali, 6(1), 10-15 betlar.
11. Shokirov, U. (2021). "Ijtimoiy o'zgarishlar va ma'naviyat." Ijtimoiy tadqiqotlar jurnali, 14(1), 22-27 betlar.
12. Sirojiddinov, A. (2019). "O'zbekiston ma'naviyatining yangi talqini." O'zbekiston xalq ta'limi jurnali, 8(3), 15-20 betlar.
13. Sodiqov, M. (2019). "Yoshlar va ma'naviyat." Yoshlar tadqiqotlari jurnali, 8(1), 33-40 betlar.
14. Tursunov, D. (2020). "O'zbekistonning ma'naviy merosi." Madaniyat va ma'rifat jurnali, 10(2), 20-26 betlar.
15. Vohidov, O. (2023). "Yosh avlod va ma'naviy qadriyatlar." Yoshlar va jamiyat, 12(2), 40-45 betlar.